



## DURPOSHSHO XUDOYNAZAROVA BOLTABOYEVNA HAYOTI VA IJODI

*Botirov Tolibjon*

*PTMA tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab o`qituvchisi*

*Ko`palova Mahfuza -UrDU talabasi*

*To`xtaboyeva Venera - Nukus DPI talabasi*

*Dilim – ganjina, bayona galdim, Yonmoq-murodim, jahona galdim  
Durposhsho Xudoynazarova*

**Annotatsiya:** Maqolada Durposhsha Xudoynazarova hayoti va ijodi haqida ma`lumot berilgan. “Bir tutam yog`du” she`riy kitobidagi vatan mavzusi yoritilgan.

**Kalit so`z:** Matnazar Abdulhakim, Amir Temur, vatan, Xorazm, sohibqiron

Xorazmning olis bir qishlog`ida yashab ijod bilan shug`ullanayotgan, she`rlarida ona vatanga bo`lgan cheksiz xurmat shabadasi ufurib turgan istedod sohibasi Durposhsho Xudoynazarova Boltaboyevna

1963- yil 4- iyulda Xorazm viloyati Bog`ot tumanining qipchoq qishlog`ida ziyoli oilada dunyoga kelgan.

Xorazm Davlat Pedagogika instituti (UrDU) ning o`zbek tili va adabiyoti fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. She`rlari tuman, viloyat va respublika nashrlarida muntazam e`lon qilinib keladi. Ilk she`riy to`plami “Girdobdag`i gul” 1999-yilda nashrdan chiqqan. 2022- yil “Bir tutam yog`du” nomli she`riy kitobi keng o`quvhilar ommasiga taqdim etildi. Durposhsho Xudoynazarova hozirgi kunda Hazorasp tumani pedagogika kollejida o`quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelmoqda. Ustozning shogirdlari bugungi kunda maktab, kollej, prezident ta`lim muassalari agentligi tizimidagi maktablarda, nufuzli oliy ta`lim muassalarida va televidiniya kabi sohaslarda faoliyat yuritishadi. Ijodkorning “Bir tutam yog`du” deb nomlangan kitobining ilk saxifalari vatanparvarlik g`oyalari bilan qalblarga jo`shqinlik olib kiruvchi misralardan boshlanadi.

Vatan, ko`zlarimning qarog`idasan,  
Vatan, yuragimning ardog`idasan,  
Temur Malik yoqqan mayog`idasan,  
G`ururim, shavkatim ham shonim- vatan!  
Senga baxshidadir shu jonim , vatan!

Ushbu “ Vatanga qasida” nomli she`r Vatan so`zi bilan boshlanib, vatan deya tugallanishi bejizga emas, albatta. Inson tug`ilibdiki, umrining oxirigacha ona deya, ona vatan deya yashaydi. Shu yurt uchun, uning shon u shavkati uchun, uning qadr



qimmati, tinchligi uchun yashaydi, kerak bo`lsa jonini ham fido qilishga tayyor bo`ladi. Shoira vatanning har narsasini , tikonidan osmonigacha yaxshi ko`rvuchchi ekanligi mana shu she`ridan anglashiladi. Durposhsho

Uyg`on elim, o`zingni bir er bilib,  
Men uyg`ondim shijoat shavqqa to`lib,  
Bolam, bir qalq mard Jaloliddin bo`lib,  
G`ururim, shavkatim ham shonim- vatan!  
Senga baxshidadir shu jonim , vatan!

Deydi she`ri davomida. “Uyg`on”... bu so`z qanday qudatli ediki, “Usmon” ni xushdan ayirsa, Bu so`zni aytib, “Cho`lpon” ning ko`kragidan laxta qon kelsa... Ijodkor bu so`zning zalvorini ko`tara bildimikan?

Shoira yurt o`g`lonlariga “ bolam” deya nido qilib, uyg`onishini istamoqda. Uyg`onish nimadan uyg`onish kerak, Nahotki Usmon Nosir va Cho`lponning so`zlaridan keyin millat uyqudan tura bilmadi? Nahot millat hali hanuz g`aflatda? Durposhsha Boltaboyevna Halima Xudoyberdiyevlar kabi

Sen ey, mizg`ib, mudrab borayotgan do'st,  
U qonlar jismingni qilgaylar to's-to's,  
Har lahzada uyg'on!  
Har lahzada o's!  
O'stir xudo degan shu mamlakatni!

Uyg`on deya- Uyg`oq bu vatanda beparvolik “fazilati” ega yoshlarga “uyg`on-xech bir onni yutqazma” deya xitoblar qiluvchi ijodkordir. Usmon Nosir va Cho`lponlar yurgan yo`lni orzu qiladigan shaxsdir. Yosh qalblarga tarixini, adabiyotini nainki o`zligini singdirish uchun yo`lga chiqqan yo`lboshlovchilardandir.

To`g`ri yo`ldan og`ishyotgan bo`lsang, Bir qalq, o`rninga qayt, yuksal va bu yo`lda o`zinga Ota bobolar – Jaloliddin, Amir Temur, Temur Malik, Najmuddin Kubro, Ulug`beklarni; To`maris, Oychechak, Bibixonim, Tekinamohbegimlarni o`zinga suyanchiq deb bil, deya avlodlarni ruhlantiradi.

Shoiraning ushbu kitobidagi keyingi she`rlardan “ Tarag`ay Bahodir Ushlagan qilish” she`rida shunday misralarni uchratamiz:

...Kerak edi yurtga bir sohibqiron,  
Osmoniy iroda, osmoniy shuur.  
Najotkorga muxtoj bo`lganda Turon,  
Qilichday jaranglab tug`ildi Temur...

Insonning dunyoga kelishini “Qilichday jaranglab tug`ildi” deyishlik adabiyotda yangi bir kashfiyot desak adashmagan bo`lamiz. Va shu o`rinda Durposhsho ustoz ijodkorligiga tan bermaslikning imkonи qolmaydi. So`zga xasis bo`lgan shoira Amir Temurning shijoatini birgina tug`ilishidagi holatdan o`quvchiga yetkaza biladi.

Amir Temur bo`lib tiklandi Turon,

Soxibqiron bo`lib qaddini kerdi.  
O`zin ijodiga o`zi lol osmon,  
Hali ko`rmagandi bundayin sherni.

Yurtni Birgina Amir Temur siyemosida Amir Temur ismi ila bildirib qo`yishlikdek faxr albatta har bir yurt farzandi uchun cheksiz minnatdorlik hissini uyg`otmasdan qolmaydi.

Quyida keltirrajak misralarimiz ijodkorning har bir o`zbek o`g`loniga tilaklari kabi jaranglaydi.

Hali aytar so`zim bor edi ancha,  
Buyuk Turon dardi dilimda ilinj.  
Axlim, tushingizga kirsin har kecha,  
Tarag`ay Bahodir ushlagan qilich!  
Tarag`ay

Bahodir

Ushlagan

Qilich!...

Durposhsho Xudoynazarova Matnazar Abdulhakimdek mo`tabar ustoz shoirdan fotixa olgan. Ulug` ijodkor nazaridan fayz topgan shoira bugungi kunda shakllantirgan mahorat mактабидан bir talay istedod egalari uchirma bo`layotganidan zavq olasan.Durposhsho ustoz ijodining eng o`tkir qirralaridan biri ona yurt , el, vatan haqida me`yoriga yetkazib, boshqalarga o`xshatmay yoza olishidir. Shoир shunchaki maqtovlar tizmasini tizmaydi. U ko`ngidagi yurtga bo`lgan sadoqati, millatga bo`lgan mehri, fidoyi tuyg`ularini qo`shtiq qilib kuylaydi. “

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Durposhsho Xudoynazarova “ Bir tutam yog`du” xorazm yoshlari- Urganch 2022
2. Kh-davron.uz
3. Uza.uz